

## МАHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING PROFILAKTIKASI BO'YICHA VAKOLATLARI VA UNING AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

*Ergasheva Dilirabo Abdulxamid qizi  
309-guruh kursanti*

Mahalliy hokimiyat organlari deganda - viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladigan ijroiya apparati va vakillik organlari (viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari) tushuniladi. Huquqiy maqomi Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliv mansabdar shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtida tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir. Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiyligi bo'lgani jtimoiy iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi, aholini viloyat, tuman, Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati boshligini lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiyligi sonining ko'pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi. Agar ovozberish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiyligi sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish xuquqiga ega. Tegishli xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat va Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga muvofiq hokim nomzodi bo'yicha farmon qabul qiladi. Shahardagi tuman, tumanga bo'y sunuvchi shahar hokimi tegishli shahar, tuman hokimi

tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, shahar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat hokimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimiga bo'ysundirish va yagona boshqaruva organlari tuzish. Bu xususdagi qaror keyinchalik xalq deputatlari viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarning vakolat muddati beshyil. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qiladigan hujjatlar Xalq deputatlari viloyat, tuman. Shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtadan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa. Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari hokimning taqdimiga binoan mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljalangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

- amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish;
- hokimni va uning o'rindbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rindbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini tinglash;
- qonunda nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;
- xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to'grisidagi nizomlarni tasdiqlash. Ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;
- xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;
- qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;
- ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa strukturaviy bo'linmalarining hisobotlarini tinglash;
- xalq deputatlarining so'rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

- hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasini, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar

Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.